

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

NUTQIY AKTLARNING GETROGEN TABIATI VA ULARNING YUZAGA CHIQISHIGA TA'SIR ETUVCHI PRAGMATIK OMILLAR

Rahimov Usmonjon Ergashevich

Andijon davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi.

e-mail: smonjonrahimov1961@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0006-5220-6715>

Annotatsiya.

Maqolada nutqiy aktlarning getrogen tabiati hamda ularning yuzaga chiqishiga ta'sir etuvchi pragmatik omillar kognitiv tilshunoslik va pragmalingsvistika nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Kommunikativ jarayonning asosiy tarkibiy qismlari sifatida fikr, so'z, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatlar izohlanib, "fikir-so'z-fikir" algoritmi asosida nutqiy faoliyatning mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: nutqiy akt, pragmalingsvistika, kognitiv tilshunoslik, lokutiv akt, illokutiv akt, perlokutiv akt, pragmatik vaziyat, kommunikativ strategiya.

ГЕТЕРОГЕННАЯ ПРИРОДА РЕЧЕВЫХ АКТОВ И ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ИХ РЕАЛИЗАЦИЮ

Рахимов Усмонжон Эргашевич

Андижанский государственный университет, независимый исследователь.

Аннотация.

В статье анализируются гетерогенная природа речевых актов и прагматические факторы, влияющие на их реализацию, с позиций когнитивной лингвистики и прагмалингвистики. Раскрываются взаимоотношения между мыслью, словом, говорящим и слушающим как основными компонентами коммуникативного процесса, а также освещаются механизмы речевой деятельности на основе алгоритма «мысль – слово – мысль».

Ключевые слова: речевой акт, прагмалингвистика, когнитивная лингвистика, локутивный акт, иллокутивный акт, перлокутивный акт, прагматическая ситуация, коммуникативная стратегия.

HETEROGENEOUS NATURE OF SPEECH ACTS AND PRAGMATIC FACTORS INFLUENCING THEIR REALIZATION

Rahimov Usmonjon Ergashevich

Andijan State University, Independent Researcher.

Abstract.

This article analyzes the heterogeneous nature of speech acts and the pragmatic factors influencing their realization from the perspectives of cognitive linguistics and pragmalinguistics. The relationships among thought, word, speaker, and listener as the main components of the communicative process are explained, and the mechanisms of speech activity are elucidated on the basis of the "thought-word-thought" algorithm.

Keywords: speech act, pragmalinguistics, cognitive linguistics, locutionary act, illocutionary act, perlocutionary act, pragmatic situation.

Kirish. Kognitiv tilshunoslik va pragmalingsvistikada tilning ontologik tabiati namoyon bo'ladi. Unda inson bosh omil vazifasini bajaradi. Chunki aloqa-aralashuv va muloqot insonlar doirasida amalga oshadi. Muloqot jarayoni o'ta murakkab bo'lib, uning algoritmidagi psixik, fizik, fiziologik va lingvistik jarayonlar pragmatik jihatdan uyg'unlashadi hamda kommunikatsiyani yuzaga keltiradi. Natijada kommunikatsiyada "fikir – so'z – fikir" algoritmik butunligi asosida nutqiy jarayon amalga oshadi.

Fikir – bu axborotning psixik manzarasidir. Chunki inson ongida olam psixik manzara sifatida namoyon bo'ladi. Bu insonning atrof-muhit, jamiyat, o'zi va hodisalar haqidagi tasavvurlarining yaxlit tizimidir. Bizning dunyoni his qilishimiz, tushunishimiz va talqin etishimizning psixik ko'rinishlari aynan shu manzarada aks etadi. Bu inson ongining ichki psixik xaritasidir. Chunki inson tashqi olam modelini o'z ongida yaratadi va uni o'ziga xos tarzda tushunadi. Har bir inson dunyoni o'z xaritasi – tajribasi, bilimi va hissiyotlari filtri orqali idrok etadi. Shuning uchun ham har bir insonning fikri va tafakkuri

o'ziga xos bo'ladi. Olamning psixik manzarasida kognitiv, emotsional va qadriyat mezonlari kabi elementlar mavjud bo'lib, inson aynan shu elementlar orqali dunyoni anglaydi. OPM (okkazional pragmatik ma'no) qotib qolgan statik hodisa emas, u doimo rivojlanib va o'zgarib boradi hamda insonning ilmiy gorizontalini belgilaydi.

So'z (matn) – olamning lisoniy manzarasini aks ettiruvchi vositadir. Bu dunyoni qaysi so'zlar va grammatik qoliqlar orqali ifodalashimizni anglatadi. Qisqacha aytganda, u olam psixik manzarasining moddiylashgan lingvistik qolipidir. Psixik manzarada his qilish muhim bo'lsa, lisoniy manzarada ifodalash muhim hisoblanadi. Lisoniy manzara olamni til orqali ifodalaydi, har bir til uni o'ziga xos so'z va vositalar yordamida aks ettiradi. Shu bois har bir til olamni o'ziga xos tarzda ifodalaydi. Ma'lumki, olamning fizik, kimyoviy, geografik, matematik, geometrik va fiziologik manzaralari ham mavjud bo'lib, ularda ham olam o'z aksini topadi. Ular faqat aks ettirish vositalari bilan bir-biridan farqlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Kommunikatsiyaning algoritmik jarayonlarida ishtirok etadigan elementlar – fikr (matn va axborotning psixik obrazi), so'z (fikrning lingvistik qobig'i, belgisi), so'zlovchi (axborot yetkazuvchi – inson, radio, gazeta, badiiy asar, ilmiy asar matnlari mualliflari), fikr (tinglovchi ongidagi uzatilgan axborotning psixik obrazi) va tinglovchi (sun'iy intellekt bo'lishi ham mumkin) hisoblanadi. Kommunikatsiyada nutqiy vaziyat – pragmatik vaziyatga qarab muloqot strategiyasi belgilanadi. Pragmatik vaziyat va muloqot strategiyasi talabi bilan nutqiy akt (maqsadli harakat) yuzaga chiqadi. Uning uch turi haqida qarashlar mavjud [2.13–20]. Ilmiy tadqiqotlarda lokutiv, illokutiv va perllokutiv turlari tahlil qilingan.

Tasavvurimizdagi fikrni yetkazish harakati (bu harakat har xil bo'lishi mumkin – paralingvistik vositalar, rasmlar, videomateriallar, haykallar, yoqtirmalar va h.k.) nutqiy akt hisoblanadi. Uni ongimizdagi axborotning algoritmik moddiylashuv jarayoni deb ham tushuntirish mumkin. Kommunikativ jarayonda fikr, so'zlovchi, fikr va tinglovchi ishtirok etadi, deb yuqorida tushuntirdik. Bugungacha bo'lgan tadqiqotlarda esa axborot, so'zlovchi va tinglovchi tarzida izohlangan [1.3–16]. Biz esa tinglovchining ongidagi fikr tinglovchidan oldin yuzaga keladi, deb hisoblaymiz. Chunki moddiylashgan axborot tinglovchi ongiga ta'sir etib, fikr uyg'otadi va tinglovchi axborotni ongida qayta ishlaydi hamda ta'sirlanganligini moddiylashtiradi. Shuning uchun, bizningcha, tinglovchidan oldin albatta uning ongidagi axborot – fikr bo'lishi kerak.

Shuni unutmaslik kerakki, so'zlovchi (shaxs sifatida) ishtirok etmasligi ham mumkin. Masalan, obyektiv reallikdagi tabiat hodisalari – yomg'ir, qor, shamol, daryoning shovullashi, yorug'lik ham insonga axborot yetkazadi va unga ta'sir qiladi. Bunda axborot yetkazishda inson ishtirok etmaydi. Shuning uchun yuqorida ta'kidlangan axborot – so'zlovchi – fikr – tinglovchi modeli axborot – fikr – tinglovchi (ko'ruvchi, eshituvchi, his qiluvchi) modeliga aylanadi.

Shuningdek, monologik nutq ham mavjud bo'lib, unda so'zlovchi ham, tinglovchi ham bitta shaxs bo'ladi. Bunday vaziyatda so'zlovchi o'ziga o'zi savol, buyruq yoki maslahat beradi va o'zi javob beradi, buyruqni bajaradi yoki maslahatni qabul qilib, munosabat bildiradi. Bundan tashqari, so'zlovchi axborotni lingvistik qobiqqa o'ramasligi (verballashtirmasligi), uni jismoniy harakatlar (mimika, kaltaklash, tupirish, turtish, silash, chimdish, qitiqlash, boshini boshiga qo'yish) orqali yetkazishi ham mumkin. Ekstralingvistik vositalar orqali yetkazilgan axborot so'zlovchining harakati orqali yuzaga kelganligi sababli modelda so'zlovchi elementi saqlanadi, faqat axborot verballashmagan bo'ladi.

Shunday nutqiy vaziyatlar ham bo'ladiki, ularda tinglovchi ishtirok etmaydi, so'zlovchi esa o'ziga o'zi ham gapirmaydi, balki tinglovchi bor deb tasavvur qilib, xuddi unga murojaat qilayotgandek axborot yetkazadi. Bunday vaziyatlarda axborotning ta'siri – perllokutiv akt yuzaga chiqmaydi. Moddiylashgan axborot (lokutiv akt) mavjud, moddiylashgan maqsad (illokutiv akt) ham mavjud, biroq nutqiy ta'sir izi (perllokutiv akt) bo'lmaydi. Masalan, darsga tayyorgarlik ko'rish yoki aktyorning obrazga tayyorgarlik jarayonida shunday holat kuzatilishi mumkin.

N. Mahmudov tilning antropotsentrik mohiyatini tahlil qilar ekan, til hodisalarini inson omili bilan bog'liq holda o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Olim tilni faqat struktur birliklar tizimi sifatida emas, balki inson tafakkuri, madaniyati va kommunikativ faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab hodisa sifatida talqin etadi. Muallif tilshunoslikda nutq jarayonlarini, kommunikativ vaziyatni hamda insonning nutqiy faoliyatini o'rganish istiqbolli yo'nalishlardan biri ekanligini qayd etadi [1, B. 3–16].

Sh. Safarovning pragmalingsvistika bo'yicha tadqiqotlarida nutqiy akt nazariyasining asosiy tamoyillari yoritilgan. Olim nutqiy faoliyatni kommunikativ maqsadga yo'naltirilgan harakat sifatida baholab, lokutiv, illokutiv va perllokutiv aktlarning o'zaro bog'liqligini izohlaydi. Shuningdek, pragmatik ma'no, kommunikativ niyat va nutqiy strategiya tushunchalarining mohiyati ochib beriladi. Muallifning fikricha, har qanday nutqiy birlikning mazmuni faqat lingvistik shakl bilan emas, balki kommunikativ vaziyat va ishtirokchilarning pragmatik bilimlari bilan ham belgilanadi [2, B. 13–20].

M. Hakimov o'zbek pragmalingsvistikasining nazariy asoslarini ishlab chiqib, nutqiy muloqotning pragmatik xususiyatlarini keng yoritgan. Tadqiqotda kommunikativ maqsad, nutqiy strategiya va taktika, kontakt hamda distant muloqot, murojaat shakllari kabi masalalar tahlil qilinadi. Olim pragmatik vaziyatning nutqiy aktlar shakllanishidagi rolini alohida ta'kidlab, muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy mavqei, yoshi, jinsi va madaniy tajribasi nutqiy faoliyatga bevosita ta'sir ko'rsatishini qayd etadi [3, B. 45–73; 98–115].

X. Ismoilovning paralingvistik vositalarga bag'ishlangan tadqiqotida nutqning emotsional-ekspressiv ta'sirini kuchaytiruvchi omillar o'rganilgan. Muallif ohang, intonatsiya, mimika, jest va boshqa ekstralingvistik vositalarning kommunikativ jarayondagi funksiyalarini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, paralingvistik vositalar nutqiy aktning pragmatik samaradorligini oshiradi va tinglovchida ma'lum emotsional holatlarni yuzaga keltiradi [4, B. 79–82].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, nutqiy aktlarning yuzaga chiqishi ko'p omilli va geterogen jarayon bo'lib, unda lingvistik, kognitiv, psixologik, ijtimoiy hamda pragmatik omillar o'zaro uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Mazkur tadqiqot ana shu ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda nutqiy aktlarning murakkab tabiatini hamda ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi pragmatik omillar tizimini yoritishga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda nutqiy aktlarning geterogen tabiati va ularning yuzaga chiqishiga ta'sir etuvchi pragmatik

omillarni aniqlash maqsadida pragmatik, kognitiv hamda kommunikativ yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nutqiy akt nazariyasiga oid ilmiy manbalar qiyosiy-tahliliy usul asosida o'rganildi. Shuningdek, lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlarning kommunikativ jarayondagi o'rni tavsifiy hamda interpretativ metodlar yordamida tahlil qilindi. Nutqiy vaziyat, kommunikativ strategiya, paralingvistik vositalar va pragmatik omillarning nutqiy aktlarning shakllanishiga ta'siri diskursiv-pragmatik tahlil asosida yoritildi. Tadqiqot davomida umumshtirish, tasniflash va konseptual tahlil usullaridan ham foydalanildi. Natijada nutqiy aktlarning ko'p qatlamli va geterojen tabiatga ega ekanligi hamda ularning yuzaga chiqishida kognitiv, psixologik, ijtimoiy va kommunikativ omillarning kompleks tarzda ishtirok etishi aniqlandi.

TADDIQOT NATIJALARI. Nutqiy aktlarda pragmatik vaziyat talabi bilan muloqot strategiyasi belgilanar ekan, ikki tomonlama strategiyani nazarda tutish kerak bo'ladi. Birinchisi – so'zlovchining strategiyasi, ikkinchisi esa – tinglovchining strategiyasidir (ko'pchilik tadqiqotlarda faqat so'zlovchining strategiyasi ta'kidlanadi [3]). Nutqiy jarayon individual xususiyatga ega bo'lganligi sababli strategiyalar ham subyektiv mohiyat kasb etadi. Chunki olamni anglash, dunyoqarash, pragmatik ong, xarakter, gender xususiyati, yosh xususiyati, fiziologik imkoniyat, madaniyat, mentalitet, yashash tarzi, yashash joyi, bilim va tajriba ko'lami har bir insonda turlicha bo'lganligi uchun pragmatik vaziyatdagi strategiyalar ham turlicha bo'lishi tabiiydir. Bizningcha, strategiyalar subyektiv jihatdan qo'yiladigan va belgilanadigan talablardir.

Illokutiv akt – moddiylashgan maqsad – pragmatik vaziyatga qarab turlicha belgilanishi mumkin. Masalan, buyruq – biron-bir harakatni (ruchkani olib berish, yuzini o'zgartirish, yurishini o'zgartirish, imijini o'zgartirish, kiyimini o'zgartirish, jismoniy tuzilishini o'zgartirish) bajarishga undash, ma'naviyatini o'zgartirishga undash, didaktik buyruq, pedagogik buyruq, psixologik buyruq, diniy buyruq, biron-bir vazifani bajarishga undash, biznes buyrug'i va h.k.; maslahat – diniy maslahat, ma'rifiy maslahat, iqtisodiy maslahat, huquqiy maslahat, oilaviy maslahat, boshqaruv maslahati, ma'naviy maslahat, psixologik maslahat, siyosiy-mafkuraviy maslahat, quda-andachilik maslahati va h.k. Shuningdek, iltimos, yalinish-yolvorish, so'rash, tilanish, xushomad, kibrlanish, tavoze, hurmat va hurmatsizlik, erkalash, kinoya, piching, kuldirish kabi nutqiy aktlar ham mavjud bo'lib, ular ham o'z ichida mayda turlarga bo'linishi mumkin. Bularni tahlil qilish alohida tadqiqotni talab etadi.

Tinglovchidagi nutqiy ta'sir – perlokutiv aktlar ham subyektiv mohiyat kasb etganligi sababli tinglovchining pragmatik ongi, dunyoqarashi, bilimi, xakteri kabi xususiyatlariga qarab turlicha namoyon bo'ladi. Ta'sirlanish effekti va uning belgilari ham har xil bo'ladi. Shunga qarab tinglovchining javob strategiyasi ham o'zgaradi. Masalan, u tushunmasligi, xafa bo'lishi, yoqlashi, yig'lashi, kulishi, xo'mrayishi va h.k. mumkin.

Nutqiy aktlarning yuzaga chiqishiga turli omillar ta'sir etadi. Yuqorida ta'kidlanganlardan tashqari, nutqiy vaziyat, ya'ni pragmatik vaziyat ham muhim omil hisoblanadi. Ularni, bizningcha, quyidagicha belgilash mumkin.

Nutqiy vaziyat joyi – oilada, ko'chada, ta'lim muassasasida, ishxonada, jamoat joylarida (avtobus, oshxona, muzey, bozor, supermarket, shohbekat, kassa, aeroport, samolyot, paroxod, poyezd, metro, ko'rgazma zallari, sartaroshxona, choyxona, restoran, to'yxona, turli marosimlar, ta'ziya joyi, kasalxona, sanatoriya, turli qabullar, uchrashuvlar, majlis, auditoriya, teatr, konsert, sirk, bog'lar, kutubxona, seminar, himoya va h.k.), qo'shni xonadonda, qarindosh-urug'lar xonadonida, do'stnikida, dushmanlikida, ustozlikida, boshlig'inikida, xodimlikida, kursdoshlar va sinfdoshlar davrasida, hamkasblar davrasida, masjidda, qamoqxonada, tergovchi oldida, sud majlisida, armiyada, notanishlar davrasida, dushmanlar davrasida, do'stlar davrasida, genderologik davrada, aqli zaiflar davrasida, nogironlar davrasida, bemorlar davrasida, askiyachilar davrasida, ijtimoiy tarmoqlarda va h.k. Bunday vaziyatlar ham nutqiy aktlarning yuzaga chiqishiga ta'sir qiladi va nutqiy strategiyani mos ravishda o'zgartirishga majbur qiladi. Masalan, inson o'z oilasida mavjud muhit va an'analarga mos strategiyani belgilaydi, illokutiv aktlardan birini tanlaydi hamda milliy va axloqiy mezonlarga mos lokutiv akti yuzaga chiqaradi.

Vaziyat pragmatikasi ishtirokchilarning pragmatik ongiga mos tushsa, so'zlovchi va tinglovchiga bir xil ta'sir qiladi. Agar mos tushmasa, ta'sir turlicha bo'lishi mumkin. Milliy, diniy, kasbiy, gender, yosh yoki ijtimoiy mavqe jihatidan farqlar mavjud bo'lsa, ta'sir ham har xil bo'ladi. Chunki ularning pragmatik ongi turlicha. Vaziyat pragmatikasida nutqiy masofa – kontakt va distant muloqot [3] ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, yuzma-yuz, telefonda, videochatda, Zoom platformasida, ijtimoiy tarmoqlarda yoki xat orqali amalga oshiriladigan muloqot nutqiy aktlarning va muloqot strategiyasining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, ishtirokchilarning tanish yoki notanish bo'lishi, vaqtning yetarliligi yoki qisqaligi, murojaat shakllarining tanlanishi (notanishga tog'a, aka, opoqi, xola, birodar, uka, ini, og'ayni, do'st, dugona, o'rtoq, jafokash, mehribon, azizim, qoqindiq, ustoz, mullaka, dilbandim, go'zalim va h.k.) ham nutqiy strategiyaga ta'sir qiladi.

Nutqiy aktlarning yuzaga chiqishiga ta'sir etuvchi omillardan paralingvistik vositalar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ular nutqqa hamroh bo'luvchi ekstralingvistik vositalar hisoblanadi. Ularga ohang (ovoz tembi, toni, kuchli va kuchsiz talaffuz, pichirlash, baqirish, intonatsiya), mantiqiy urg'u, yuz a'zolarining harakati (qosh, ko'z, lab, burun, bet, til chiqarish, tilni tishlash), bosh harakatlari (bosh qimirlatish), bo'yinni qisish, kulish (yuz holati, tirjayish, kulimsirash, miyig'ida kulish), xo'mrayish, yig'lash, yig'lamsirash, xo'rsinish, entikish, pauza (to'xtab-to'xtab gapirish, tez gapirish, duduqlanish, cho'zib gapirish), gavda harakati (g'oz turib gapirish, tavoze qilish, bir oyoqqa suyanagan holda gapirish, gavdani ikki tomonga tashlab gapirish, har tomonga qarab gapirish, yerga qarab gapirish), qo'l harakatlari (qo'lini paxsa qilish, ko'rsatkich barmog'ini niqtab gapirish, bosh barmog'ini tepaga ko'tarib gapirish, barmog'ini tishlash, ikki kaftni bir-biriga urib gapirish, boshini silab gapirish, qo'lini yelkasiga qo'yib gapirish, qo'lini ushlab gapirish), oyog'ini o'ynatish, oyoq bilan yer chizish, yer tepish, yurib gapirish va h.k. kiradi. Ushbu vositalar nutq ishtirokchilariga pragmatik ta'sir ko'rsatadi hamda nutqiy aktlarning yuzaga chiqishi, muloqot strategiyasining belgilanishi va o'zgarishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, fonopragmatik vositalar (tovushlarni orttirish, cho'zish, buzib talaffuz qilish [3]) ham xuddi shunday ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, so'z tanlash, emotsional-ekspressiv birliklar (maqol, matal, parema, masal, aforizmlar, frazeologik birikmalar, kiritma konstruksiyalar, kirish va modal so'zlar)dan foydalanish ham nutqiy ta'sirni kuchaytiradi.

Nutqiy aktlarning yuzaga chiqishi murakkab jarayon bo'lib, geterogen tabiatga ega. Chunki ularda bir vaqtning o'zida bir qancha nutqiy hodisalar – maqsad va ta'sir – o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi va muloqot ishtirokchilariga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

MUHOKAMA

Nutqiy aktlar nazariyasi til va tafakkur o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganishda muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, nutqiy aktlar faqat lingvistik birliklar yig'indisi emas, balki kognitiv, psixologik, ijtimoiy va pragmatik omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan murakkab kommunikativ hodisadir. Shu jihatdan maqolada ilgari surilgan "fikir – so'z – fikir" algoritmi nutqiy faoliyatning dinamik tabiatini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy pragmalingvistik tadqiqotlarda kommunikativ jarayon ko'pincha "so'zlovchi – axborot – tinglovchi" modeli asosida izohlanadi. Biroq tadqiqotda tinglovchi ongidagi fikrning kommunikativ jarayonning ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin qilinishi nutqiy akt nazariyasiga yangi yondashuv sifatida baholanishi mumkin. Chunki axborotning haqiqiy kommunikativ qiymati uning tinglovchi ongida qay darajada qayta ishlanishi va qanday psixik obraz hosil qilishi bilan belgilanadi. Demak, kommunikatsiyaning yakuniy natijasi faqat axborot uzatilishi emas, balki uning qabul qiluvchi ongida muayyan ma'no va munosabatning shakllanishidir.

Tahlillar nutqiy aktlarning geterogen tabiatga ega ekanligini ko'rsatdi. Birgina nutqiy birlik tarkibida lokutiv, illokutiv va perllokutiv qatlamlar bir vaqtning o'zida mavjud bo'ladi hamda ular o'zaro uzviy bog'langan holda faoliyat ko'rsatadi. Masalan, bir xil mazmundagi buyruq yoki maslahat turli pragmatik vaziyatlarda turlicha illokutiv kuchga ega bo'lishi mumkin. Natijada tinglovchida yuzaga keladigan perllokutiv ta'sir ham turli ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bu esa nutqiy aktlarning kommunikativ samaradorligi ko'p jihatdan vaziyat pragmatikasi bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Muhokama davomida pragmatik vaziyatning ahamiyati alohida e'tiborga loyiq ekanligi aniqlandi. Muloqot joyi, ishtirokchilarning ijtimoiy mavqei, yoshi, jinsi, kasbiy mansubligi, o'zaro munosabati va kommunikativ masofa kabi omillar nutqiy strategiyani tanlashda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, kontakt va distant muloqot shakllarining kengayishi natijasida kommunikativ strategiyalar ham yangi ko'rinishlarga ega bo'lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, videoaloqa platformalari va sun'iy intellekt vositalari orqali amalga oshirilayotgan muloqotlar nutqiy aktlarning yangi pragmatik xususiyatlarini yuzaga chiqarmoqda. Shuningdek, paralingvistik va fonopragmatik vositalarning nutqiy aktlar tarkibidagi o'rni ham muhim ekanligi kuzatildi. Mimika, jest, intonatsiya, ovoz temбри, pauza va boshqa ekstralingvistik vositalar ko'pincha verbal ifodaning pragmatik kuchini oshiradi yoki o'zgartiradi. Ayrim hollarda aynan paralingvistik vositalar kommunikativ maqsadning to'liq anglanishini ta'minlaydi. Shu sababli nutqiy aktlarni faqat til birliklari doirasida emas, balki multimodal kommunikatsiya nuqtayi nazaridan ham o'rganish zarur. Tadqiqot natijalari nutqiy aktlarning yuzaga chiqishi ko'plab omillar bilan bog'liq bo'lgan murakkab va ko'p qatlamli jarayon ekanligini tasdiqlaydi. Nutqiy aktlarning geterogen tabiatini o'rganish pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik va kommunikativ lingvistika sohalaridagi nazariy qarashlarni yanada boyitishga hamda inson nutqiy faoliyatining mexanizmlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

XULOSA

Nutqiy aktlar insonning kommunikativ faoliyatida markaziy o'rin egallovchi murakkab va ko'p qatlamli hodisa hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, nutqiy aktlarning yuzaga kelishi "fikir – so'z – fikir" modeli asosida amalga oshadi. Bu jarayonda kognitiv, psixologik, fiziologik, lingvistik va pragmatik omillar o'zaro uyg'unlashib, yagona kommunikativ tizimni hosil qiladi. Nutqiy faoliyatning negizida inson ongida shakllangan fikrning lisoniy vositalar orqali moddiylashuvi hamda tinglovchi tomonidan qayta idrok etilishi yotadi. Tahlillar nutqiy aktlarning geterogen tabiatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Har qanday kommunikativ jarayonda lokutiv, illokutiv va perllokutiv aktlar o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'lib, yagona kommunikativ maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Mazkur qatlamlarning uyg'unligi nutqiy ta'sirning samaradorligini belgilaydi hamda muloqot natijasini shakllantiradi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, so'zlovchi va tinglovchining individual xususiyatlari, dunyoqarashi, pragmatik kompetensiyasi, bilim va hayotiy tajribasi nutqiy aktlarning mazmuni hamda ta'sir kuchiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, kommunikativ vaziyat, muloqot joyi, kommunikativ masofa, ishtirokchilarning ijtimoiy mavqei, yoshi, gender xususiyatlari va madaniy qadriyatlari kommunikativ strategiya hamda taktikalarning tanlanishini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, paralingvistik va fonopragmatik vositalar ham nutqiy ta'sirni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli nutqiy aktlarni tahlil qilishda faqat lisoniy shaklni emas, balki kommunikativ jarayonning barcha tarkibiy qismlarini kompleks yondashuv asosida o'rganish zarur. Umuman olganda, nutqiy aktlarning geterogen mohiyatini aniqlash pragmalingvistika va kognitiv tilshunoslikning nazariy asoslarini yanada boyitadi hamda inson nutqiy faoliyatining mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Kelgusida nutqiy aktlarning raqamli kommunikatsiya, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellekt vositasidagi muloqot jarayonlarida namoyon bo'lish xususiyatlarini tadqiq etish ushbu yo'nalishning istiqbolli ilmiy vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahmudov N. *Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...* // *O'zbek tili va adabiyoti*. – Toshkent, 2012. – № 5. – B. 3–16.
2. Safarov Sh. *Pragmalingvistika*. – Toshkent, 2008. – B. 13–20.
3. Hakimov M. *O'zbek pragmalingvistika asoslari*. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 176 b.
4. Ismoilov X. Paralingvistik vositalarning ijobiy va salbiy emotsional ta'siriga doir // «*O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari*» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2025. – B. 79–82.
5. *International Journal of Society, Language and Linguistics*. – URL: <https://utppublishing.com/journal/ijssl>
6. *Global Research Network Journal*. – URL: <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/8528/8266>